

## BEN JONSON: INGLIZ HAJVIY KOMEDIYASINING ASOSCHISI. “VOLPONE” ASARI MISOLIDA

*Sherqulova Zulayho Dilshod qizi,  
Xalqaro Innovatsion Universiteti magistranti*

**Annotatsiya:** Ben Jonson ingliz adabiyotidagi eng katta dramaturg va hajv ustalaridan biri bo'lib, uning asarlari zamonaviy komediya, satira va axloqiy adabiyot rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan. U Shekspirning zamondoshi bo'lsa ham, uning yo'nalishi boshqacha bo'lib, qat'iy tuzilgan dramaturgiyasi<sup>1</sup> va axloqiy hajvlari bilan mashhur. XVII asr ingliz adabiyoti ko'plab yetuk yozuvchilarni o'zida jamlagan katta bir davrdir. Benjamin Jonson o'sha davridayoq “Shekspirdan keyingi ikkinchi ingliz dramaturgi” deya e'tirof etiladi. Ayniqsa, Jonson yaratgan komediyalar va trigokomediyalar<sup>2</sup> teatr rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

**Kalit so'zlar:** dramaturgiya, trigokomediya klassitsizm, restavratsiya, kritisizm, realizm

Jonsonning ta'siri Restavratsiya<sup>3</sup> davri komediyasi, XVIII asr ingliz klassitsizmi<sup>4</sup> va keyinchalik hatto zamonaviy hajv janriga qadar yetib kelgan. Tomas Kidning “Ispan fojeasi” tragediyasida “Ieronima” rolini ijro etadi va aktyorlik qobiliyati bilan taniqli shaxslar nazariga tushadi. Mashhur prodyusser Flipp Xenslou bilan ham dramaturg sifatida faoliyat olib boradi. Sahnada rol ijro etish qobiliyati bilan cheklanib qolmagan Ben Jonson asta sekin o'zining betatkror sahna asarlarini yaratishga kirishadi.

Jonson o'z asarlarida o'sha davr jamiyatining nuqsonlarini hajv qilib, odob-axloq masalalariga e'tibor qaratgan. U fransuz va qadimgi rim adabiyotidan ilhomlanib, qat'iy dramatik qurilmalar yaratgan. 1597 yilda yozilgan ilk komediyalaridan biri “Every men in his humour” ( “ Har bir odam uning hazilida” ) asari yozuvchiga katta shuhrat keltiradi. Shundan so'ng ketma-ket bir biridan ajoyib komediyalar dunyo yuzini ko'radi.

Shuningdek. “The Alchimest” ( “Alkimyogar”) komediyasi firibgarlar va aldangan odamlarning hikoyasi bo'lib, inson tabiatidagi zaifliklarni qiziqarli va tanqidiy tarzda ochib beradi, kritisizmga<sup>5</sup> urg'u beriladi. “The Isle Of Dogs” (“Itlar oroli”), “A Tale of Tube” (“ Quvur haqida ertak”) , “The Case is Altered” (“Vaziyat o'zgartirildi”) “ The Poetaster” (“Shoir “) , “Bartholomew Fair” (“Bartolomey yarmarkasi “) Londondagi xalq festivallarini hajviy tasvirlash orqali Jonson jamiyatning har xil qatlamlarini qalamga olgan. , “The Devil is an Ass” (“ Yovuz Ass”) komediyalari ham kitobxonlar qalbidan chuqur joy egallaydi. Sahnalashtirilgan asarlari esa o'zining jozibador yumorlari, ravon epizodlari va keskin burilishlari bilan

tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'ladi. Ben Jonson o'z zamondoshlaridan mumtoz adabiyotga mehr qo'yganligi bilan ajralib turgan. Ben Jonson faqat komediyalar yozish bilan cheklanib qolmaydi. Uning 2ta mashhur "Sejanus His Fall" ("Sejanusning qulashi") va "Catiline His Conspiracy" ("Katilina fitnasi") tragediyalari ham bo'lib ulardagi hayot qiyinchiliklariga kurashgan insonlar taqdirini hikoya qiladi.

Ben Jonsonning eng mashhur asarlaridan yana biri "Volpone, or The Fox" ("Volpon yoxud Tulki") asari bo'lib ushbu asar chuqur ramziy ma'noga ega asarlardan biridir. Asar katta syujetlik asar komediyasi hisoblanib jamiyatdagi kamchiliklarni, firibgarliklarni ustidan kuladi. Oxirida adolat qaror topishiga ishora qiladi. Nomaq'ul yo'l bilan boylik orttirish natijasi yomon ekanligini bosh qahramon Venetsiyalik zodagon Volpone hayoti timsolida yoritib beradi. Volpone, or The Fox" – 1606-yilda yozilgan hajviy komediya bo'lib, insonning ochko'zligi, yolg'on va makr-hiyla ustiga qurilgan. Asar Venetsiyada sodir bo'ladi va undagi har bir asosiy qahramon hayvon nomi bilan atalgan, bu esa ularning fe'l-atvoriga ishora qiladi. Asar boy va farzandsiz zodagon Volpone (tulki) haqida. U allaqachon juda katta boylikka ega bo'lsa ham, ochko'zligi tufayli yanada ko'proq boy bo'lish uchun hiyla ishlatadi. U o'zini jiddiy kasal, hattoki o'limga yaqin deb ko'rsatib, shahar zodagonlarini aldab, ularning qimmatbaho sovg'alarini oladi. Buning evaziga u ularga o'z merosxo'ri bo'lishlarini va'da qiladi. Volpone bu ishni yolg'iz bajarmaydi. Unga makkor va ayyor xizmatkori Mosca (chivin) yordam beradi. Mosca Volpone nomidan turli boy zodagonlarni chaqirib, unga hadyalar berishga undaydi. Ochko'z merosxo'rlarning aldanishi tasvirlanadi. Volpone va Mosca uchta asosiy zodagonni aldab, ularning har biri Volponening merosxo'ri bo'lishiga umid qiladi. Asar qahramonlari ham hayvonlar va qushlar timsolida laqab oladi. Qahramonlardan *Corbaccio* (qarg'a timsolida) – juda qari va boy odam. U Volpone merosini olishi uchun o'z o'g'lini Bonarioni merosdan mahrum qiladi. *Corvino* (qarga timsolida) – hasadgo'y savdogar. U Volpone merosidan ulush olish uchun hatto o'zining chiroyli xotini Celiani unga taqdim qilishga rozi bo'ladi. *Voltore* (burgut timsolida) – ayyor advokat. U Volpone merosini olish uchun har qanday nayrang va yolg'on ishlatishga tayyor.

Volponening xatolari va uning yordamchisi Moscaning o'yinlari asarda ketma-ket yoritib boriladi. Volpone tamagirlarning ustidan kulishdan zavq oladi va ularni yanada ko'proq alday boshlaydi. Ammo uning ishi kutilmaganda og'ir tus oladi. Boshqalar bu vaziyatda foydalanadi. Corvino o'z xotinini ataylab Volpone bilan yolg'iz qoldiradi, Volpone yaqinlashmoqchi bo'lganda Celia esa qichqirib yordam so'raydi va Bonario Corbaccioning o'g'li uni qutqaradi. Volpone shu vaziyatda aybdor bo'li qoladi. Keyinchalik Bonario Volponening hiylalarini oshkor qilishga harakat qiladi, lekin Mosca uni tuhmat bilan qamoqqa tushiradi. Voltore advokat sifatida soxta guvohlar yordamida Bonario va Celia'ni sudda ayblaydi. Mosca endi juda kuchli bo'lib qoladi va Volponeni ham aldab, butun boylikni o'ziga qoldirmoqchi bo'ladi. U

Volpone o'ldi deb e'lon qiladi va o'zini merosxo'r sifatida sudga taqdim etadi. Keyin bu yolg'onligidan boshqalar ham xabar topa boshlaydi.

Asarning yakunida adolat g'alaba qiladi. Volpone Moscaning xiyonatini anglab yetgach, uni jazolash uchun o'zini tirik ekanligini oshkor qiladi va hamma yolg'onlarni fosh qiladi. Sud barcha gunohkorlarni jazolaydi: Volpone – butun boyligi tortib olinadi va qamoqqa tashlanadi. Mosca – qul sifatida qamab qo'yiladi. Corbaccio – o'z o'g'li Bonario foydasiga merosdan mahrum qilinadi. Corvino – xotinining huquqlarini tiklash uchun jazosini oladi. Voltore – advokatlikdan mahrum qilinadi. *Shu tariqa, ochko'zlik va yolg'on baribir o'z jazosini oladi, halol insonlar esa oqibatda yengib chiqadi.*

Quyida Ben Jonsonning "Volpone" asaridan ta'sirli bir parcha keltirilgan. Bu sahna Volponening o'z boyligi haqidagi monologi bo'lib, u tamagirlik va ochko'zlikka bo'lgan sevgisini ochiq ifoda etadi.

Volponening boylikka sig'inishi (I-qism, 1-sahna)

Good morning to the day; and next, my gold:

Open the shrine, that I may see my Saint.

Hail the world's soul, and mine! more glad than is

The teeming earth to see the long'd-for sun

Peep through the horns of the celestial Ram,

Am I, to view thy splendour darkening his;

That lying here, amongst my other hoards,

Shew'st like a flame by night; or like the day

VOLPONE:

"Hayrli tong, mening oltin quyoshim! Senga sajda qilaman, ey xazinam!

Sen – mening yagona qudratim, mening yagonam, mening hayotim!

Sen – podshohlarni ham qulga aylantiradigan kuchsan.

Har qanday jonzotni sotib olish mumkin,

Har qanday vijdonni egish mumkin,

Faqat sening porloq nuring bilan!

Oh, bu la'nati qariyalar! Ular o'limimni kutib, boyligimga ko'z tikishadi,

Lekin men yashayman va ularni laqillatishda davom etaman!"

Bu parchada Volponening ochko'zligini va boylikka sig'inishini ko'rsatadi. U oltinni ilohiy kuchdek tasvirlaydi va boylik orqali hamma narsani sotib olish mumkinligiga ishonadi. Jonson bu monolog orqali insonlarning ochko'zligi va axloqsizligini hajv qiladi.

Yana boshqa qismlarida ham ajoyib ko'rinishlarga guvoh bo'lamiz.

5 qism. 8-sahna.

“ VOLP. Sir, you may redeem it,

They said, you were possest; fall down, and seem so:

I'll help to make it good.

[voltore falls.]

--God bless the man!—

Stop your wind hard, and swell: See, see, see, see!

He vomits crooked pins! his eyes are set,

Like a dead hare's hung in a poulter's shop!

His mouth's running away!

Do you see, signior?

Now it is in his belly!

CORV. Ay, the devil! “

VOLP. Janob, siz buni oqlashingiz mumkin,

Ular deydilarki: sen zo'rsan. yiqilasan, shunday tuyuladi:

Men buni yaxshi qilishga yordam beraman.

[voltor tushadi.]

-Har odamni Xudo asrasin!

Shamolingizni qattiq to'xtating va shishing: qarang, qarang, qarang, qarang!

U qiyshiq ignalar qusadi! uning ko'zlari tikilgan,

O'lik quyon parrandachilik do'konida osilgandek!

Uning og'zi qochib ketyapti!

Ko'ryapsizmi, mister?

Endi u qornida!

CORV. Ey, shayton! ”

Ushbu parchada asar oxirlashib borayotgani Volponning obrosi to'kilib boylik ham qo'ldan chiqib borayotganligi va hech narsa abdiy emasligiga qolaversa soxta xushmuomalik bilan qiligan gaplarga ishora qilinadi.

Xulosa qiladigan bo'lsak "Volpone" – *inson ochko'zligi va yolg'on ustiga qurilgan hayotning fojiali hajviy tasviridir. Bu asarda hamma yomon niyatli kishilar o'z jazosini oladi, lekin ular yolg'on va hiylalar bilan uzoq vaqt jamiyatni aldab yashay olganlari ham ko'rsatiladi. Asarning asosiy g'oyasi shuki, tamagirlik va yolg'on bilan boylik orttirish oxir-oqibat insonni halokatga olib keladi.*

Xullas, Ben Jonsonning asarlari realizm<sup>6</sup> va hajv bilan ajralib tutdi. U jamiyatdagi ochko'zlik, firibgarlik, axloqiy buzuvchilik va johillikni fosh qildi. Uning komediyalari odamlarga kulgi orqali saboq berishga intilgan va bu jihati bilan Ingliz adabiyoti dramaturgiyasida muhim o'rin egalladi. Jonsonning ijodi ingliz hajviy teatrining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan bo'lib, uning asarlari bugungi kunda ham sahnalarda qo'yilmoqda va dolzarbligini yo'qotmagan.

#### ADABIYOTLAR

1. Jonson, Ben. Ben Jonson: The Complete Works. Oxford University Press, 2012.
2. 1. Jonson, Ben. Volpone, or The Fox. Cambridge University Press, 1999.

3. D. Ochilova , Restavratsiya davri ingliz adabiyotida klassitsizm, 2020.
4. Jonson, Ben. Volpone and Other Plays. Penguin Classics, 2004.
5. Donaldson, Ian. Ben Jonson: A Life. Oxford University Press, 2013. Jonson, Ben. The Alchemist and Other Plays. Oxford World's Classics, 2008
6. Джонсон Бен , Энциклопедия Кругосвет
7. Г.В. Аникин, Н.П. Михальская, “История английской литературы” Москва, “Высшая школа” 1975.